

## DISKURS TAHLILLARIDA PRAGMATIK YONDASHUV

*Rakhmatova Mekhriniso Musinovna*

*Doctor of Philological Science*

*Associate Professor (Bukhara State University)*

*Aslonova Shakhrizoda Ziyodullayevna*

*Master of Bukhara State University*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada diskursda pragmatik tahlilning olib borilishi, pragmatikaning boshqa sohalar bilan bog'liqligi va pragmatik hodisa yuzasidan misollarda tahlillar olib borilgan. Tildagi madaniy va pragmatik hodisalar yuzasida tahlillar olib borilgan.

**Kalit so'zlar:** Sintaksis, semantika, e'tiqod, urf-odat, pragmatika, lingvistika, muloqot, jamiyat.

**Annotation:** in this article, the pragmatic analysis of the discourse, the connection of pragmatics with other fields, and the pragmatic phenomenon are analyzed in examples. Analysis of cultural and pragmatic phenomena in the language was carried out.

**Key words:** Syntax, semantics, belief, tradition, pragmatic field, linguistics, communication, society.

**Аннотация:** в данной статье на примерах анализируются прагматический анализ дискурса, связь прагматики с другими областями, прагматический феномен. Проведен анализ культурно-прагматических явлений в языке.

**Ключевые слова:** синтаксис, семантика, вера, традиция, прагматическое поле, языкознание, коммуникация, общество.

Diskurs tahlili muloqotdagi tilni o'rganadi. Kontekstual mulohazalarni o'z ichiga oladigan ushbu tahlil turi lingvistikaning pragmatika deb nomlanadigan sohasi bilan yaqindan bog'liqdir. Pragmatika muloqot funksiyalari va lingvistik shakllarni o'zida birlashtiradigan uch jihatli munosabatlar bilan asosan bog'liq bo'lib, ushbu shakllar ma'lum bir funksiyalarni bajaradigan lingvistik shakllarni o'z ichiga oladigan kontekst bilan bog'liq holatlarni yarata oladi<sup>1</sup>. Og'zaki va yozma diskursning ma'nolari qanday hosil bo'lishini o'rganadigan pragmatika sohasi og'zaki va yozma nutq sodir bo'ladigan kontekstga bog'liqdir. Pragmatika asosan, diskurs orqali shakllangan so'zlovchining qiziqish va maqsadlari bilan bog'liqdir<sup>2</sup>.

An'anaviy til tahlili pragmatikani sintaksis va semantikaga qarama-qarshi qo'yadi. Sintaksis — bu til tahlilining sohasi bo'lib, lingvistik shakllar o'rtasidagi munosabatlarni, ular qanday ketma-ketlikda joylashganligini va qanday gap tuzilmalari o'zaro mos ravishda shakllanganligini va shuning uchun grammatik jihatdan maqbulligini tavsiflaydi. Semantika — bu tilda ma'no qanday yashirilganini tavsiflovchi til tahlili sohasi bo'lib, ushbu soha asosan leksik elementlarning ma'nosi bilan bog'liq. Lingvistika va Sematika sohalarini o'z ichida tahlil va tavsiflar olib borilganda lingvistik shakllardan foydalanuvchilar hisobga olinmaydi, pragmatikada esa lingvistik shakllar va bu shakllardan

<sup>1</sup> Brown, G. and Yule, G. (1983) Discourse Analysis. Cambridge: Cambridge University Press.

<sup>2</sup> Рахматова, М. М. (2019). ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА "НЕКРАСИВОСТЬ (ХУНУКЛИК)" В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ. Международный академический вестник, (2), 59-62.  
<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=37109696>

foydalanadigan odamlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish bilan juda aniq aloqadordir<sup>3</sup>. Umuman olganda, pragmatika odamlarning niyatlari, taxminlari, e'tiqodlari, maqsadlari va tildan foydalanishda bajaradigan xatti-harakatlari bilan bog'liqdir.

Pragmatika sohasi so'zlovchi nazarda tutayotgan ma'no va kontekstual ma'no bilan shug'ullanadi. So'zlovchi ma'nosi ma'lum bir so'z yoki so'z birikmalari gaplar ichida yoki ulardan tashqarida bildiradigan ma'nosidan ko'ra so'zlovchi nazarda tutayotgan ma'noni ko'proq anglatib keladi<sup>4</sup>. Biror bir kishi "men ochman" desa, bu insonning ochlik hissini his qilayotganini bilish mumkin. Pragmatik jihatdan qaraydigan bo'lsak, huddi shu jumla bir yosh bola tomonidan tushda maktabdan kelib oshxonada o'tirgan onasidan so'ralayotgan bo'lsa, bu jumla tushlik so'rab qilingan murojaat vazifasini bajaradi, yoki bo'lmasa, tushlik qilib endigina bo'lgan bola "men ochman" deganda tushlikda yetarlicha ovqat yeyolmaganligini yoki ovqatdan keyin shirinlik xoxlayotganligini tushunish mumkin. So'zlovchi nazarda tutayotgan ma'noni tushunishda faqatgina gapning o'zidan anglashilgan ma'nonigina emas, voqea sodir bo'layotgan vaziyatni ham hisobga olish kerak bo'ladi. Aynan shunday holat yo'lovchi va tilanchi o'rtasida sodir bo'lsa, ya'ni tilanchi "men ochman" deganda aynan ochlik hissi haqida emas, sadaqa so'rashni nazarda tutgan bo'ladi. Aynan ushbu holatlardan ma'lumki, oddiy "men ochman" diskursi turli xil vaziyatlarda turli xil ma'nolarni o'zida yashirishi pragmatik hodisani keltirib chiqaradi<sup>5</sup>.

Ikkinchi til sifatida birorta chet tilini o'rganayotgan kishi tilni chuqurroq o'rganishi uchun o'sha tilda muloqot olib boruvchi jamiyat madaniyati va ularning urf-odatlari bilan ham tanishishi kerak bo'ladi. Har qanday til jamiyat bilan birga shakllanganligi sababi, madaniyatlar aro tushunchalar xilma-xilligi mavjud bo'lib, bir jumla, so'z yoki so'z birikmasi turli xil tillarda turlicha pragmatik ma'nolarni anglatishi mumkin. Misol uchun *qora ko'zlar* jumlasini Ingliz va o'zbek tillarida turlicha ma'nolarni bildiradi. "*Qizning qora ko'zlari...*" deyilganda uning ko'zlaridagi estetik go'zallik nazarda tutilgan bo'ladi va o'zbek xalqida go'zallikka bo'lgan munosabatni ifodalaydi. Ingliz tilida esa *black eyes* ya'ni qora ko'zlar bunday ma'noni anglatmaydi chunki ularning madaniyatida qora ko'zga nisbatan hech qanday ijobiy qarashlar mavjud emas.<sup>6</sup>

Til o'rganish jarayonida diskurs tahlillari bilan pragmatik sohalarning uyg'unligini tushunish va chuqur o'rganish til borasida barcha jihatlarni o'rganishga imkon yaratadi. Madaniyatlar aro turfa xillik va ularning har bir o'z madaniyatga xosligi bilan ajralib turib lingvistik birliklarning o'ziga xos ma'nolarini keltirib chiqaradi. Ilmiy tadqiqotlarda tilning shunday nozik jihatlari yanada chuqurroq o'rganishlar olib boriladi.

## Adabiyotlar ro'yxati:

1. Brown, G. and Yule, G.(1983) *Discourse Analysis*. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Schiffrin, D. (1994). *Approaches to discourse*. Oxford: Basil Blackwell
3. Yule, G. (1996). *Pragmatics*. Oxford: Oxford University Press.

<sup>3</sup> Schiffrin, D. (1994). *Approaches to discourse*. Oxford: Basil Blackwell

<sup>4</sup> Musinova, R. M. (2022). Academic Integrity: Teaching and Learning Challenges. *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 30–33. Retrieved from <http://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/35>

<sup>5</sup> Yule, G. (1996). *Pragmatics*. Oxford: Oxford University Press.

<sup>6</sup> Raxmatova, M. M. CROSS-CULTURAL UNDERSTANDING OF VALUES IN LANGUAGE. <http://www.inter-nauka.com/issues/2017/1/1908>

# INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

---

4. Raxmatova, M. M. CROSS-CULTURAL UNDERSTANDING OF VALUES IN LANGUAGE. <http://www.inter-nauka.com/issues/2017/1/1908>
5. Рахматова, М. М. (2019). ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА "НЕКРАСИВОСТЬ (ХУНУКЛИК)" В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ. Международный академический вестник, (2), 59-62. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=37109696>
6. Musinova, R. M. (2022). Academic Integrity: Teaching and Learning Challenges. Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 30–33. Retrieved from <http://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/35>
7. Izomovich, R. Z., & Shavkatovich, S. X. UDC: 82 REDUCTION AS THE WAY OF THE LANGUAGE ECONOMY MANIFESTATION. *SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY*, 68(15), 41-44. [https://buxdu.uz/media/jurnallar/ilmiy\\_axborot/ilmiy\\_axborot\\_6\\_son\\_2020.pdf#page=70](https://buxdu.uz/media/jurnallar/ilmiy_axborot/ilmiy_axborot_6_son_2020.pdf#page=70).
8. Izomovich, R. Z., & Fazliddinova, U. D. (2022). INFLUENCE OF ORTHOGRAPHY IN TEACHING ENGLISH AND SECOND LANGUAGE ACQUISITION. *Thematics Journal of Applied Sciences*, 6(1). <https://thematicsjournals.in/index.php/tjas/article/view/988>.
9. Ubaydullayeva Muattar O'rinbekovna. (2022). USAGE OF DIFFERENT STYLISTIC TROPES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES AND THEIR SPECIFIC CHARACTERISTICS. *Academia Globe: Inderscience Research*, 3(10), 223–227. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/ZX3Q>
10. Usmonova Zarina Habibovna. (2022). TRUTH AND FAIRNESS IN "THE DEAD ZONE" BY STEVEN KING'S. *Open Access Repository*, 8(1), 77–80. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/ZH3MJ>
11. Nargiza Sulaymonovna, Q. ., & Arjunbek Orifjonovich, O. . (2022). KONSEPTUAL METAFORALARNING LINGVOMADANIY HAMDA KOGNITIV XUSUSIYATLARI VA TIL TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNII. *Scientific Impulse*, 1(3), 594–600. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1055>